

O'qish savodxonligi

I qism

1



novda
edutainment

@ELEKTRON_DARSLIKBOT dan yuklab olindi.

U. B. Aydarova
N. K. Azizova

O'qish savodxonligi

1-sinf


I qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik
kengash tomonidan tavsiya etilgan.



Toshkent – 2023



@ELEKTRON_DARSLIKBOT dan yuklab olindi.

UO'K: 808.545(075.3)

BBK 74.202.5ya72

A 38

Aydarova U. B., Azizova N. K.

O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik.
I qism. / U. Aydarova, N. Azizova. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 80 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahar 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M. M. Umarova – Toshkent shahar 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



Yodda saqlang



**Savollarga
javob bering**



**Juft bo'lib
ishlang**



Izohli lug'at:



**Diqqat bilan
o'qing**



**Gaplarni
to'ldiring**



Bu qiziq!



**Topshiriqni
bajaring**



Uyga vazifa

ISBN 978-9943-9709-0-8

© U. B. Aydarova, N. K. Azizova
© "Novda Edutainment", 2023

@ELEKTRON_DARSLIKBOT dan yuklab olindi.



Quyidagi yashiringan so'zni toping.



- O'qish nima uchun kerakligini aytib bering.



She'rni ifodali o'qing.

O'qishni bilsang o'zing

Qanday yaxshi, qanday soz,
O'qishni bilsang o'zing.
Yordam kutib oyingdan
Jovdirab turmas ko'zing.
"O'qing" deya buvingga
Yolvorib turmay,
Yoki opajoningga
Yalinib yurmay.
Kutib, chorlab o'tirmasdan,
Shart o'qiysan
Tutilmasdan.

Tursunboy Adashboyev



Savollarga javob bering.

1. She'r nima haqida ekan?
2. She'r qahramoni kimdan unga kitob o'qib berishini so'ragan?

3. O'ylab ko'ring, o'qishni bilmaydigan bola hayotda qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin?

4. She'rdagi ushbu satrlar nimani anglatishi haqida o'ylab ko'ring:

*Kutib, chorlab o'tirmasdan,
Shart o'qiysan tutilmasdan.*

5. Siz qanday kitoblarni o'qishni xohlardingiz?



Izohli lug'at:

soz – yaxshi, tuzuk

jovdiramoq – iltijo bilan qaramoq,
termilmoq

chorlamoq – chaqirmoq



So'zlar o'rnini aniqlang va maqollarni o'qing.
Siz nechta maqol o'qidingiz?



She'rni ifodali o'qing.

I bo'lim.
**Aziz Vatan,
jonajon Vatan**





Alifbodan foydalanib, quyidagi soʻzni oʻqing.
Raqamlar alifbodagi har bir harfning tartib
raqamiga mos keladi.

21, 1, 19, 1, 13

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	B	D	E	F	G	H	I	J	K
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
L	M	N	O	P	Q	R	S	T	U
21	22	23	24	25	26	27	28	29	
V	X	Y	Z	Oʻ	Gʻ	Sh	Ch	Ng	



Oʻqing.

Vatan – moʻtabar

Vatan – inson tugʻilib oʻsgan joy.
Ota-bobolar yashagan diyor. Vatan – bu siz
sevgan odamlar makoni. Siz yashayotgan
xonadon, mahalla, qishloq, shahar ham Vatan
ichidagi kichik Vatandir.

Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Uning har
bir qarich yeri muqaddasdir. Inson uchun suv,
havo, ota-ona qanchalik aziz boʻlsa, Vatan
ham shunchalik moʻtabar.

Dunyoda mamlakatlar, shaharlar koʻp. Lekin
inson uchun uning Vatani ona kabi yagonadir.



Savollarga javob bering.

1. Ushbu matn nima haqida?
2. Vatan haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Vatan nimadan boshlanadi?



Izohli lugʻat:

moʻtabar – aziz

makon – yashash joyi



Topshiriqni bajaring.

- Matnning har bir qismini alohida oʻqing.
- Matndan “Vatan” soʻzi ishtirok etgan gaplarni topib oʻqing.
- Nechta gap oʻqidingiz?
- Maqollarni oʻqing va mazmunini izohlang.

1. **Vatansiz**



– **kuysiz**



2.



bilan tirik,



– **el bilan.**



Matnni ifodali oʻqing. Maqollarni yod oling.



So'zni toping.

O'Z+BE+VA+KIS-VA+TON

- Topgan so'zingiz haqida ma'lumot bering.



O'qing.

Ozod Vatan mehri

O'zbekiston – ozod diyor,
Ko'rkam, buyuk Vatandir.
Tuprog'i zar, xo'b hosildor,
Bag'ri bog'-u chamandir.

Dilda tuyib Vatan mehrin,
Yurt haqida o'ylaymiz.
Shu boisdan uning madhin
To'lib-toshib kuylaymiz.

G'ulom Shomurod



Savollarga javob bering.

1. She'rda O'zbekiston qanday ta'riflangan?
2. "Tuprog'i zar, xo'b hosildor" deyilganda nimani tushundingiz?
3. Siz Vatanimizni yana qanday so'zlar bilan ta'riflaysiz?

**Izohli lug'at:***hosildor – ko'p hosil beradigan**madhi – maqtovi**zar – oltin**ko'rkam – chiroyli***Topshiriqni bajaring.**

1. She'rdan **chiroyli**, **oltin** so'zlarining ma'nodoshi ishtirok etgan satrlarni o'qing.
2. Bitta harfni o'zgartirib, yangi so'z hosil qiling.

<i>bog' – tog'</i>	<i>buyuk –</i>
<i>ozod –</i>	<i>yurt –</i>
<i>zar –</i>	<i>mehr –</i>

3. Maqolni o'qing.

Vatan qadrini bilmagan
O'z qadrini bilmas.



She'rdan o'zingizga yoqqan to'rtlikni yod oling.



Alifbodan foydalanib, quyidagi soʻz birikmasini oʻqing. Raqamlar alifbodagi har bir harfning tartib raqamiga mos keladi.

21, 1, 19, 1, 13

7, 8, 12, 14, 23, 1, 28, 8, 18, 8

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	B	D	E	F	G	H	I	J	K
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
L	M	N	O	P	Q	R	S	T	U
21	22	23	24	25	26	27	28	29	
V	X	Y	Z	Oʻ	Gʻ	Sh	Ch	Ng	



Oʻqing.

Vatan himoyachilari kuni

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni Oʻzbekistonda eng muhim bayramlardan biri hisoblanadi. Bu bayram mamlakatimiz mustaqilligi eʼlon qilingan davrda belgilangan. Bu bilan yangi yosh davlat – buyuk kelajak sari dastlabki qadamni tashlagan.



14-yanvar O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari tashkil etilgan kun. Ushbu sana Vatan himoyachilari kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Bu kun nafaqat askarlar, balki mamlakatdagi har bir yigit-qiz uchun ahamiyatlidir. Ularning har biri o'z ona yurtining tayanchi, himoyachisi sanaladi.



Savollarga javob bering.

1. 14-yanvar qanday kun?
2. Nima uchun aynan 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni deb belgilangan?
3. Ushbu kun o'lkamizda qanday nishonlanadi?
4. Kimlarni Vatan himoyachisi deb atash mumkin?
5. Siz o'zingizni Vatan himoyachisi deb bilasizmi?



Topshiriqlarni bajaring.

- Matnni qismlarga ajrating.
- Har bir qismini alohida o'qing. Ularga sarlavha toping.



Matnni o'qing. Matn mazmuniga mos rasm chizing.

Harbiy bo'lish uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?



O'qing.

Biz askarmiz

Bizlar yosh askar,
Mard-u maydonmiz.
Ona Vatanga
Ko'ksi qalqonmiz.

Vatanni asrash
Oliy burchimiz.
Birdamlikdadir
Qudrat, kuchimiz.

Qozi Ismoil



Savollarga javob bering.

1. She'r kimning nomidan aytilgan?
2. Ayting-chi, askar qanday xislatlarga ega bo'lishi kerak?
3. She'rdagi ushbu satrlar nimani anglatishi haqida o'ylab ko'ring:

*Vatanni asrash
Oliy burchimiz.
Birdamlikdadir
Qudrat, kuchimiz.*



Izohli lug'at:

*burch – bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa
qalqon – himoyachi, qo'riqchi*



Quyidagi soʻzlarni maʼnodosh soʻzi bilan bogʻlang.

mard

birdamlik

oliy

hamjihatlik

yuksak

jasur

- Shu soʻzlar ishtirok etgan satrlarni oʻqing.



Juft boʻlib ishlaymiz.

Quyida berilgan soʻzlarni oʻqing va bu kasb egalari oʻz Vatanini qanday himoya qilayotganliklari haqida oʻylab koʻring.



Masalan: oʻqituvchi – yosh avlodni tarbiyalaydi, bilim beradi, kasb tanlashda yoʻl koʻrsatadi.

Shifokor, sudya, sportchi,
quruvchi, muhandis,
haydovchi, yozuvchi, fermer,
jurnalist, askar, dasturchi.



Sheʼrni yod oling.



O'zbekiston – jonajon yurtim mening!



Xiva – asliy qiyofasini saqlab kelayotgan shaharlardan biri. Xivada bo'lgan har bir kishi uning me'moriy obidalaridan hayratlanadi.

Buxoro – Markaziy Osiyodagi eng diqqatga sazovor shahar. Buxoroda barcha davrlarning noyob me'moriy yodgorliklari saqlanib qolingan.

Toshkent –

Vatanimiz O'zbekiston Respublikasining poytaxti. Toshkentda ko'plab chiroyli binolar, obodonlashtirilgan bog' va xiyobonlar mavjud.

Samarqand – Sharq mo'jizasi.

Samarqanddagi eng mashhur maskan – Registon maydoni. Maydon atrofini uchta madrasa – “Tillakori”, “Ulug'bek” va “Sherdor” madrasalari qurshab turadi.



Savollarga javob bering.

1. Jonajon yurtimiz haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. O'zbekiston xaritasida nimalar tasvirlangan?
3. Ular bizga nimadan xabar beryapti?
4. Matnda qaysi joy nomlari tilga olingan? Ular haqida nima deya olasiz?



Izohli lug'at:



o'tov



minora



adras



Doiralar ichidagi bo'sh kataklarni to'ldiring va yashiringan so'zlarni o'qing.



- Aniqlagan so'zlaringiz ishtirok etgan gaplarni matndan topib o'qing.



O'qituvchingiz yordamida quyidagi topshiriqlarni bajaring.



1. Berilgan rasmlar xaritada qaysi joyni ifodalayotganini ayting.
2. Xaritadan o'zingiz yashaydigan hududni toping.
3. Bo'g'inlarni to'g'ri tartibda joylashtiring va so'zlarni o'qing.

harsha

loqqish


halmala

chako'

O'zingiz yashaydigan shahar, qishloq, mahalla, ko'changizning nomini ayting.



Matnni o'qing.





So‘zlarda tushib qolgan unli harflardan mosini qo‘ying va maqolni o‘qing.

V.tani b.rning b.xti b.r.

- Mazmunini izohlang.



O‘qing.

Vatanim bor – baxtim bor

Xizmat qilay elimga,
Quvvat bo‘lib diliga.
Har kun reja tuzaman,
O‘qib, uqib o‘sarman.

Yurtim menga cho‘zar qo‘l,
Deydi: “Bolam, sodiq bo‘l”.
El qudrati – chin qudrat,
Vatan sha‘ni sarbaland.

Men shu yurtning bo‘lagi,
Bordir unga keragim.
Vatanimni yashnatish –
Eng zo‘r orzu-tilagim.

Kavsar Turdiyeva

**Savollarga javob bering.**

1. Sizning vatanningiz qayer?
2. She'r nima haqida ekan?
3. *Yurtim menga cho'zar qo'l,
Deydi: "Bolam, sodiq bo'l".*

Sizningcha, shoir ushbu satrlar orqali nima demoqchi?

4. Siz Vatanni yashnatish uchun qanday hissa qo'shasiz?

**Izohli lug'at:**

sha'n – obro', sharaf

sarbaland – eng baland

uqmoq – tushunmoq, bilib olmoq

**Topshiriqni bajaring.**

1. "El, yurt, vatan" so'zlari ishtirok etgan misralarni o'qing.

2. Tez aytishni ayting.

Qora-qura qo'zilar

Qirda quvonib o'tlar.

**She'rni ifodali o'qing.**



Savollarga javob bering.

1. Siz qaysi bo'lim bilan tanishdingiz?
2. Bu bo'limdan nimalarni bilib oldingiz?
3. Bo'limdagi qaysi asar sizga ko'proq yoqdi?
4. Quyidagi rasmlar bo'limdagi qaysi asarga tegishli ekanini ayting.



5. Berilgan parchalar qaysi asardan olingan?
Yordam kutib oyingdan
Jovdirab turmas ko'zing.

Vatanni asrash
Oliy burchimiz.
Birdamlikdadir
Qudrat, kuchimiz.

Dilda tuyib Vatan mehrin,
Yurt haqida o'ylaymiz.

6. Bo'limda yod olgan she'rlaringizdan ayting.



Nuqtalar o'rniga unli harflardan mosini qo'ying va maqolni o'qing.

**. na yurt . ng om . n bo'lsa,
R . ngi ro'ying s . mon bo'lmas.**

- Vatan haqida o'rgangan maqollaringizdan ayting.



Tez aytishni o'qing.

**Bahodir bayroqni Botirga berdimi,
Botir Bahodirga bayroqni berdimi?**



O'zingiz yashaydigan hudud haqida gaplar tuzing va so'zlab bering.



II bo'lim. Qoyilman qish ishiga, zavq beradi kishiga



Qish fasli boshlanganini qanday bilamiz?




O'qing.

Qishning ishi

Qoyilman qish **ishiga**,
Zavq beradi **kishiga**.
Anhorni muzga **qoplab**,
Yaxmalak qildi **boplab**.
Faqat shuni **bilmadim**,
O'ylab, o'yga **yetmadim**.
Olamga oq libosni
Qanday qilib yopdiykin?
Buncha oq rang, oq nurni
Qanday qilib topdiykin?

Nurbek Turmuhamedov



Savollarga javob bering.

1. Muallif nimaga qoyil qolgan?
2. She'rdagi qishki anhor holati qanday tasvirlangan?
3. She'rdagi keltirilgan savollarga o'zingiz javob topishga urinib ko'ring.



Izohli lug'at:

libos – kiyim

yaxmalak – sirpanchiq



She'rdan ajratib ko'rsatilgan so'zlarni o'qing. Ohangdosh bo'lgan so'zlarni bir-biriga juftlang.

Masalan: Qoplab-boplab, ...

Bu ohangdosh so'zlar qofiyadosh so'zlar hisoblanadi.



“Bo'ladi-bo'lmaydi” o'yini.

- Quyida keltirilgan voqea-hodisalarning qaysilari qishda sodir bo'ladi?
1. **O'tloqda moychechak gullaydi.**
 2. **Ayiq uyquga ketadi.**
 3. **Daryolar muzlaydi.**
 4. **Vatan himoyachilari kunini nishonlaymiz.**
 5. **Ko'chmanchi qushlar issiq mamlakatlardan uchib keladi.**
 6. **Daraxt shoxlari oppoq tusga kiradi.**



She'rni yod oling.



Rebusni yeching.



”””

sh

Qish faslida tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?



O'qing.

Kumush qish

Har faslning o'z fazilati va o'ziga xos xislati bor. Qish fasllari ichida o'ziga xos chiroyga ega, go'zal fasldir. Qish fasli dekabr, yanvar, fevral oylaridan iborat.

Qishda hamma yoq qor bilan qoplanadi. Atrof mayda zarralardek, turli-tuman rangda yaltiraydi. Shuning uchun odamlar qishni “kumush qish” deyishadi.

Siz qor yog'ishini kuzatganmisiz? Bilasizmi, qor – sovuqdan qotib qolgan suvning bug'i. Ikkita bir xil qor parchasi bo'lmaydi. Ular doimo bir-biridan farq qiladi. Qorning yerga tushishini kuzatish juda zavqli!

**Savollarga javob bering.**

1. Qish fasli sizga nimasi bilan yoqadi?
2. Nima uchun odamlar qishni “kumush qish” deyishadi?
3. Matndan qor haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Qishda qanday o'yinlar o'ynaysiz?

**Izohli lug'at:**

fazilat – afzallik, ustunlik
zarra – mayda bo'lak

**Topshiriqlarni bajaring.**

- Matnning har bir qismini alohida o'qing. Qismlarga sarlavha qo'ying.
- “Qish” so'ziga ta'rif bering.
- Topishmoqlarning javobini toping.

**Yerni qor qoplar,
Soyni muz bosar.
Shamol, izg'irin
Bo'lar qay mahal?**

**Osmondan par tushadi,
Par emas, zar tushadi.**



Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.



O'qing.

Rahmdil qizcha

Qahraton qish edi. Hamma yoq qor bilan qoplangan. Shu sabab chumchuqlar juda qiyin ahvolda qolgandi. Bechoralar hech qayerdan yemish topolmas edi.

Chumchuqlar uy atrofida uchib, achinarli holda chug'urlashardi.

Mehribon qizchaning chumchuqlarga rahmi keldi. Qizcha ularga don sepdi. Chumchuqlar yemishga uchib kela boshlashdi va tez orada ular Mashaga o'rganib qolishdi.

Shu tariqa, rahmdil qizcha chorasiz qolgan qushlarni bahorga qadar boqdi.

Klavdiya Lukashevich



**Savollarga javob bering.**

1. Hikoyada gap yilning qaysi fasli haqida bormoqda?
2. Nima uchun chumchuqlarga qishda qiyin bo'ladi?
3. Hikoya qahramonining ismini ayting va uni ta'riflang.
4. Masha chumchuqlarga qanday yordam berdi? Ularni nima bilan boqdi?
5. Siz ham Masha kabi qushlarni parvarish qilasizmi? Ularga mehribonmisiz?

**Izohli lug'at:**

qahraton – juda qattiq sovuq
yemish – oziqa

**Quyidagi so'zlar bilan boshlanadigan gaplarni topib o'qing.**

- Chumchuqlar uy atrofida...
- Mehribon qizchaning...
- Chumchuqlar yemishga...

**Hikoyani ifodali o'qishga tayyorlaning.**



O'qing.

Laylak qor

Qish faslining erkasi,
Dala qirning ko'rpasi,
Yog'gin mayli, laylak qor,
Laylak qorda shodlik bor.

Sen tufayli dalalar,
Maza qilib uxlaydi,
Yumshab qir-u shudgorlar
Bahorga kuch to'playdi.

Xalqimizda bor bir gap,
Bu gapning ma'nosin top.
Qor yog'sa, der, yog'ar non,
Bu gapga albat, ishon.

Miltiqboy Xonnazarov



**Savollarga javob bering.**

1. Laylak qorning yog'ishini kuzatganmisiz?
2. She'rdan laylak qor haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Quyidagi gapning ma'nosini izohlang:
Qor yog'sa, der, yog'ar non.

**Izohli lug'at:**

shudgor – haydalgan yer

**Bu qiziq!**

Dunyo aholisining yarmidan ko'pi hech qachon haqiqiy qorni ko'rmagan.

Dunyoda ikkita bir-biriga o'xshash qor uchquni mavjud emas.

Qor parchalari juda sekin tushadi, chunki ular deyarli havodan tashkil topgan.

Yaponiyada qor parchalari muzeyi bor.

**Gapni to'ldiring.**

Endi men ... bilaman.



She'rni ifodali o'qing. Qish fasli haqidagi maqollardan yod oling.



Rasmni kuzating. Rasm asosida gaplar tuzing.



Hikoyani diqqat bilan o'qing.

Izza – bir qoshiq jizza

Shunday qilib, men Azizvoydan alamimni olmoqchi bo'ldim. Nega deysizmi? Chunki u hammaning oldida meni chalib, qorga yiqitdi. Yana to'satdan... Bolalar rosa kulishdi. Azizvoyning o'zi ham xuddi Nasriddin Afandini tomosha qilayotgandek osmonga qarab: "Yana bir dumalatsam, Qorbobo bo'lib qolasan, Irisvoy", – deydi. Qorni dumaloqlab, ochiq turgan og'ziga qopqoq qilib qo'ymoqchi bo'ldim-u, kel qo'y, dedim. Qorni qoqib, endi yuraman desam, yana chalib yubordi. Bolalar

battarroq qiyqirishdi. Endi ham qarab turarmidim? Shoshma, dedim o'zinga o'zim. Sumkamni yerga qo'yib, endi unga yopishaman desam... Bolalar "Biringga arpa, biringga bug'doy" deyish o'rniga jimib qolishdi. Qarasam, o'qituvchimiz kelyapti...

Meni birov xafa qildimi, tamom, alamimni olmasam bo'lmaydi. Lekin bu gal alamim "ichimda" qoldi. Nima qilsam ekan? Shunday qilayki, Azizvoy hammaning oldida izza bo'lsin. Bir men ham "Izza-izza – bir qoshiq jizza", deb maza qilay. Yaxshisi, sumkasiga qor solib qo'yaman... Yo'q, bo'lmaydi. Kitob maktabniki-ku, ivib ketadi. Yaxshisi.... Urre, topdim!

Yayra Sa'dullayeva



Savollarga javob bering.

1. Hikoya voqealari yilning qaysi fasliga to'g'ri kelgan? Buni qanday bildingiz?
2. Hikoyadan bosh qahramonlar ismlarini toping.
3. Hikoyada muallif Irisvoyni kimga o'xshatgan?
4. Azizvoyning qilgan ishi to'g'rimi? Fikringizni izohlang.

5. Hikoya qahramoni o'zi haqida nima degan? Ushbu satrlarni matndan toping va o'qing.
6. Irisvoy uni xafa qilgan o'rtog'iga qanday javob qaytarmoqchi bo'ldi?

Izohli lug'at:

*chalib yubordi – oyog'i bilan tepib yiqitdi
izza bo'lish – uyalish*

*bosh qahramon – hikoya yoki ertakdagi
barcha voqealar uning atrofida sodir
bo'ladigan shaxs*

Topshiriqlarni bajaring.

“Qor” so'zidagi bitta harfni o'zgartirib,
yangi so'z hosil qiling.

Birinchi harfni o'zgartib: qor-tor...

Unlini o'zgartib: qor-qir...

Uchinchi harfni o'zgartib: qor-qop...

Gapni to'ldiring.

Menga ... qiziqarli bo'ldi.

Endi men ... qila olaman.

Hikoyani o'qing.



Hikoyani o'qishda davom eting.

Ertasiga ertalab, maktabga ketayotganimda uydan yelim oldim. Azizvoy oyna tomonda o'tiradi. Sherigi partaning u tomoniga o'tmaydi. Shuning uchun ham u o'tiradigan joyga bimalol ancha-muncha yelim quydim. Kam quysam, qurib qoladi-da! Azizvoy keyingi vaqtlarda qo'ng'iroq chalinishiga zo'rg'a yetib kelyapti. U keladi-yu, ketidan ustoz.

Bugun negadir... Kelmasa-ya? Joyiga boshqa bola o'tirsa-ya? Unda nima bo'ladi? Ana, qo'ng'iroq chalindi. Xayriyat! Ana, qadam tovushi eshitildi. Hozir hovliqib kiradi. Kiradi-yu, partasiga o'tiradi. Birinchi soat – matematika. Ustoz: "G'oziyev – doskaga!" deyдилar. Azizvoy o'rnidan turaman deydi-yu, turolmaydi. Chunki u partaga yopishib qolgan bo'ladi. Hamma kulib yuboradi. Azizvoy jovdirab qoladi. Men ham maza qilib kulaman-ey, ... kulaman...



Savollarga javob bering.

1. Hikoya bosh qahramoni uyidan nima olib keldi?
2. Azizvoy sinfdan qayerda o'tirardi?

3. Irisvoy yelimdan nima maqsadda foydalanmoqchi bo'ldi?
4. Irisvoy nimadan ikkilandi?
5. Sizningcha, Irisvoyning rejalashtirgan ishi to'g'rimi?



Izohli lug'at:

hovliqmoq – shoshqaloqlik bilan harakatlanish

jovdiramoq – najot izlamoq



Rasmlarni diqqat bilan qarang.



1. Voqealar ketma-ketligini to'g'ri joylashtiring.
2. Agar rasmlardagi voqealar ketma-ketligi buzilsa, hikoya mazmuniga ta'sir qiladimi?
3. Hikoyadan rasmlarga mos parchalarni toping va o'qing.



Hikoya mazmunini so'zlab bering.

**Savollarga javob bering.**

1. Qish haqida qanday asarlar bilan tanishdingiz?
2. Qaysi asar sizga ko'proq yoqdi?
3. O'qigan hikoyalaringiz orasidan eng qiziqarli parchani so'zlab bering.

**Berilgan rasmlar bo'limdagi qaysi asarga tegishli ekanini ayting.**

- Mazmunini qisqacha so'zlab bering.

**Quyidagi keltirilgan belgilarni o'qing.
Mazmunini izohlashga harakat qiling.**

Qish – sovuq, yoz – issiq.

Qishda oq bulutlar – sovuqdan darak.

Qishda momaqaldiroq – kuchli shamoldan darak.



Topishmoqning javobini toping.

**Qish chog'i kapalaklar
Uchib yurar osmonda.
Qiziq, yo'qolib qolar
Kaftimga qo'ngan onda.**



Bo'sh kataklarga mos harflarni qo'yib, yangi so'zlar hosil qiling.

q	o	r							
q	o	r							
q	o	r							
q	o	r							
q	o	r							



Topshiriqni bajaring.

- Qishki o'yinlarga misollar keltiring.
- Qor yog'ganda qanday xavfsizlik qoidalariga amal qilish kerakligini ayting.



**“O'lkamizda qish” mavzusida rasm chizing.
Rasm mazmuniga mos gaplar tuzing.**

III bo'lim.

Kitob bilim bulog'i – O'quvchining o'rtog'i





Topishmoqning javobini toping.

**Juda sevamiz uni,
Xilma-xildir mazmuni.
Bo'lmasa ham muallim,
Bera oladi ta'lim.**

- Javobni topishda topishmoqdagi qaysi so'zlar yordam berdi?



She'rni ifodali o'qing.

Kitob – hammabop

Hayotimiz oynasi,
Bilimlarning onasi,
Buyumlar durdonasi.
Menga o'rgatgan odob –
Bu kitobdir, bu – kitob!



Aks etgan yer-u osmon,
O'tmish, kelajak zamon.
Unda she'r, ertak, doston,
Har savolga bor javob,
Bu kitobdir, bu – kitob!





Mazmunlari xilma-xil,
Aqlingga qo'shgan aql,
Do'stimdir juda ahil,
Fan yo'lida nur-oftob,
Bu kitobdir, bu – kitob!

Po'lat Mo'min



Savollarga javob bering.

1. Muallif kitobni qanday so'zlar bilan ta'riflagan?
2. Muallif fikriga ko'ra, kitob bizga nimalarni o'rgatadi?
3. "*Aqlingga qo'shgan aql*" degan jumladan nimani tushundingiz?



She'rdagi so'zlardan foydalanib, jadvalni to'ldiring.

K	I	T	O	B
2	1	1	0	B
1	0	0	0	B
0	0	0	0	B

0	S	m	0	N
2	2	m	0	N
1	1	g	2	N



She'rne ifodali o'qing.

Mutolaa olami

Oyim pazandalikka oid kitoblarni juda yaxshi ko'radilar.

Dadam avtomobillar haqidagi jurnallarni yoqtiradilar.

Singlimga ertaklar o'qish yoqadi.

Bobomlar har kuni gazeta o'qiydilar. Ular yangiliklarga qiziqadilar.

Buvim esa biz o'qiganlarimizni tinglashni yoqtiradilar.

Men bolalar ensiklopediyasini sevib o'qiyman.

Mutolaa (kitob o'qish) – ko'plab oilalar yaxshi ko'radigan qiziqarli mashg'ulot. Oilada har kim turli mavzudagi kitob, jurnal va gazetalarni mutolaa qiladi.



Savollarga javob bering.

1. Mutolaa qilish deganda nimani tushundingiz?
2. Sizning oilangizda ham mutolaa qiziqarli mashg'ulotmi? Nima uchun?
3. Siz oila a'zolaringizga kitob o'qib berasizmi?
4. Sizga qanday kitoblarni o'qish yoqadi?



Izohli lug'at:

mutolaa – diqqat bilan o'qish

pazandachilik – taom tayyorlash sirlarini puxta egallash



Adashgan harflarni o'z o'rniga qo'yib, so'zlarni o'qing.

kohiya

tagaze

jnural

taker

kobit

sikenlodiype



Yodda tuting!

Kitob tanlashda kattalar bilan maslahatlashing. Har kuni kitob mutolaa qilishga odatlaning. O'qiganlaringizni oila a'zolaringizga so'zlab bering.



Kitob so'ziga uning nomini aytmasdan ta'rif bering.



Yashiringan so'zlarni toping.

UHFKITOBILIMAQLR



She'rni ifodali o'qing.

Aql yoshda emas

Bo'lsang ham necha yoshda,
Deydilar: "Aql boshda".
Yaxshi ishlarga boshlar
Aqli, dono boshlar.

Aql kirmasa boshga,
Bosh uriladi toshga.
Amal qilib shu naqlga,
Boshing to'lsin aqlga.

Kavsar Turdiyeva



Savollarga javob bering.

1. Ayting-chi, bosh aqlga to'lishi uchun nima qilish kerak?
2. Sizningcha, nima uchun she'rda aqlsiz boshlar toshga uriladi deyilgan?
3. She'rdan qanday xulosa chiqardingiz?

**Izohli lug'at:**

naql – xalq tomonidan yaratilgan hikmatli gap

**Topshiriqni bajaring.**

- She'rni ifodali o'qing.
"Aql" so'zi ishtirok etgan misralarni o'qing.
- She'r matnidan bir harf bilan farq qiladigan so'zlarni aniqlang.
Masalan: *aql-naql*, *yosh-....*
- She'rdagi qofiyadosh so'zlarni aniqlang.
boshga- naqlga-

**Topishmoqning javobini toping.**

Tilsiz, aql o'rgatar.

**Maqollarni o'qing va mazmunini izohlang.**

Aqlsiz bosh – nursiz chiroq.

Aql – boshda, g'ayrat – yoshda.

**She'rni yod oling.**

Sizga qanday sovg'alar yoqadi?



She'rni ifodali o'qing.

Sovg'a



Doniyorning tug'ilgan kuni edi. Mehmonlar turli-tuman o'yinchoqlar ko'tarib kelishdi. O'zi yuradigan, gapiradigan, musiqa chaladigan... Bolalar o'yinchoqlarni biri olib, biri qo'yib rosa o'ynashdi. Oxiri, zerikishdi. Shu payt bolalardan birining ko'zi kitobchaga tushib qoldi. Sovg'alar orasida kitobcha ham bor edi. Birdan u talash bo'lib ketdi.

- Ber menga...
- Men o'qishni bilaman.
- Voy, rasmiyam bor ekan.
- E, to'xtab tur, yirtasan.
- Sen o'yinchoq o'ynay qol.
- Yo'q.

Doniyor kitob talashayotgan bolalarga qarab: "Essizgina, shunday aziz sovg'a bor-yo'g'i bir donagina ekan-a", deb o'ylanib qoldi va kelgusida do'stlarining tug'ilgan kuniga faqat yaxshi kitob sovg'a qilishni diliga tugib qo'ydi.

Erkin Malik



Savollarga javob bering.

1. Doniyorning tug'ilgan kuniga nimalar sovg'a qilishdi?
2. Nima uchun kitobcha talash bo'lib ketdi?
3. Doniyor nega o'ylanib qoldi?
4. Sizningcha, eng yaxshi sovg'a nima?




Izohli lug'at:

kelgusi – kelajak

diliga tugib qo'ydi – yodda saqladi, niyat qilib qo'ydi



Harflarni to'g'ri ketma-ketlikda o'qing.



Yodda tuting!

Turli xil mazmundagi kitoblar bor. Siz ham o'z qiziqishingizga mos kitoblarni o'qing. Kitob sizga zavq bag'ishlaydi. Bilimingizni oshiradi. Nutqingizni ravon qiladi.



Hikoyani o'qib, mazmunini so'zlab bering.



Alisher Navoiy buyuk shoir, olim va davlat arbobi bo'lgan. Ular kitob mutolaa qilishni juda yaxshi ko'rganlar. Besh-olti yoshida ko'plab she'rlarni yoddan bilgan. Bobomiz bizga juda ko'p asarlar yozib qoldirgan.



She'ni ifodali o'qing.

Bobom Alisher

Mening bobom Alisher
Yozib juda ko'plab she'r,
Dunyoga dong taratdi,
Mangu haykal yaratdi.

Bobomning har bir so'zi
Quyosh kabi porlaydi.
Yozgan barcha asari,
Ezgulikka chorlaydi.

Bobom qo'lida kitob,
El oralab yuribdi.
Dono yoshlarga boqib,
Kulib qarab turibdi.

Miltiqboy Xonnazarov



Savollarga javob bering.

1. She'rdan Alisher Navoiy haqida nima deyilgan?
2. Bobomizning asarlari bizni nimaga chorlaydi?
3. Alisher Navoiy haqida yana nimalarni bilasiz?



Izohli lug'at:

mangu – abadiy, umrbod

dong taratdi – mashhur bo'ldi

ezgulik – yaxshilik



Topshiriqlarni bajaring.

- She'rdan *xalq, oftob, olam* so'zlariga ma'nodosh so'zlar toping.
- Shu so'zlar ishtirok etgan misralarni o'qing.
- Qofiyadosh so'zlarni aniqlang.



So'zlarni kattalashib borish tartibida joylab, Alisher Navoiyning hikmatli so'zini o'qing.

dono Oz-oz o'rganib
yig'ilib bo'lur qatra-qatra
daryo bo'lur



She'rni ifodali o'qing. Hikmatli so'zni yod oling.



Topishmoqning javobini toping.

**Ertak, she'r-u matnlar
Yashar bir mamlakatda.
Dunyoni o'rganishda
Uning xizmati katta.**



Savolga javob bering.

- O'ylab ko'ring, nega kitoblarni buyuk donishmand deymiz?



**Audiomatnni diqqat bilan
tinglang. Kitob**



Savollarga javob bering.

1. Podsho vazirlariga qanday savol berdi?
2. Vazirlar bu savolga nima deb javob berishdi?
3. Nega podsho g'azablandi?
4. Vazirlar qanday yechim topishdi?
5. Donishmandning javobi podshohga ma'qul bo'ldimi?
6. Donishmandning javobiga o'z munosabatingizni bildiring.
7. Siz rivoyatdan qanday xulosaga keldingiz?

**Voqealar ketma-ketligini aniqlang.**

1. Podsho vazirlariga: “Dunyodagi eng zo‘r, kerakli va hamma narsadan xabardor qiluvchi narsa nima?” – deb savol beribdi.
2. O‘tgan zamonda bir podsho bo‘lgan ekan.
3. Donishmandning javobi podshoga ham ma’qul bo‘libdi.
4. Qo‘shni podsholikda bir donishmand yashar ekan. Vazirlar shu donishmandni izlab topibdi.
5. Donishmand hech ikkilanmay: “Kitob. Chunki kitob bilim beradi. Dunyodagi eng qudratli narsa esa bilimdir”, – debdi.
6. Podsho hech kimning javobi yoqmaganligidan darg‘azab bo‘libdi.

Voqealar ketma-ketligini to‘g‘ri joylashtirib, rivoyatni qayta o‘qing.



Rivoyatning mazmunini qayta so‘zlang.

Kutubxonada bolalar o'zini qanday tutishi kerak deb o'ylaysiz?



O'qing.

Kutubxona – nurxona

Kutubxonaga tez-tez boradigan bola, albatta, ko'p narsalarni biladi. Chunki kitoblar bilimli bo'lishga, inson umrining mazmunli o'tishiga yordam beradi. Kitob o'qish xotirani mustahkamlaydi, so'z boyligini oshiradi. Kitoblar aqlni charxlaydi, tasavvurni kengaytiradi. Kitob o'qish qalbni yumshatadi va insonlarni yaxshilik qilishga undaydi. Yaxshilik va yomonlikni ajratishga o'rgatadi.

Kutubxona – nurxona. Chunki bu yerda juda ko'p kitoblar bo'ladi. Siz yoshingizga va qiziqishingizga mos rang-barang kitoblarni shu yerdan topasiz. Javonlardagi qiziqarli va sermazmun kitoblar siz bilan o'rtoqlashishga shay turibdi.

Siz ham maktab kutubxonasiga a'zo bo'ling. U yerdagi kitoblar bilan qalin do'st bo'lishga harakat qiling.



Savollarga javob bering.

1. Kutubxona qanday joy?
2. Nega kutubxonani nurxona deymiz?
3. Kitob o'qish insonga qanday foyda keltiradi?
4. Matndan o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?

**Izohli lug'at:**

shay turmoq – tayyor turmoq

do'st – o'rtoq, ulfat

inson – odam, kishi

**Topshiriqni bajaring.**

- Matndan *kitob* so'zi ishtirok etgan gaplarni topib o'qing.
- Necha gap o'qidingiz?



So'zdagi harflardan foydalanib, yangi so'zlar tuzing.

K U T U B X O N A

Masalan: kon,...



Matnni o'qing.



She'zni ifodali o'qing.

Kitob

Darslik kitob qo'lingda,
Berilgandir u senga.
Yirtmay, ko'zday asrasang,
Kerak ukang Erkinga.

Erkin ham but yuritsa,
Muallim xursand bo'lar.
Kitobga mehri ko'pni,
Sinfdozlar xush ko'rar.

Kitobing qo'ldan qo'lga,
O'tib borsa, top-toza,
Undan ko'plar shodlanib,
Olishadi andoza.

Kitob – bilim manbai,
Bu barchaga ayon – haq.
Kitob o'qib yashasang,
Umring o'tar xushchaqchaq.

Obid Rasul



**Savollarga javob bering.**

1. *Kitob – bilim manbai*, deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun kitoblarni asrash kerak?
3. Kitobni qanday ehtiyot qilish zarur?
4. Kitobingiz yirtilib qolsa, nima qilasiz?
5. She'rdan kitobning qanday foyda keltirishi haqidagi satrlarni toping va o'qing.

**Rasmlarga o'z munosabatingizni bildiring.**

- Rasmlar asosida og'zaki gaplar tuzing.



She'rne ifodali o'qing. Kitobdan foydalanish qoidasini tuzing.

**Savollarga javob bering.**

1. Siz qaysi bo'lim bilan tanishdingiz?
2. Bo'limdan kitob o'qishning foydasi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Bo'limdagi qaysi asar sizga ko'proq yoqdi? Nima uchun?

**She'rni o'qing. Berilgan parchalar olingan she'r nomi va uning muallifini ayting.**

Hayotimiz oynasi,
Bilimlarning onasi,
Buyumlar durdonasi.
Menga o'rgatgan odob –
Bu kitobdir, bu – kitob!

Bobomning har bir so'zi
Quyosh kabi porlaydi.
Yozgan barcha asari,
Ezgulikka chorlaydi.

Kitob – bilim manbai,
Bu barchaga ayon – haq.
Kitob o'qib yashasang,
Umring o'tar xushchaqchaq.

- Yod olgan she'rlaringizdan aytib bering.



O'qing. Matnga sarlavha qo'ying.



ni yotib o'qimang. Uni yorug'lik chap tomondan tushadigan joyda o'qing.



ga yaqin ushlab o'qimang. O'qisangiz



toliqadi.



varaqlarini buklash,

g'ijimlash va unga chizish yaramaydi.

- Kitob o'qish qoidasiga doimo amal qiling.



Matnni to'ldiring va mazmunini so'zlab bering.

Kitob – bilim bulog'i, _____ o'rtog'i.

Kitobdan yaxshi _____ yo'q.

_____ – buyuk donishmand.

*Foydalanish uchun so'zlar: **kitob, o'quvchining, do'st.***



Kitob rasmini chizing. Chizgan kitobingiz ustiga sevimli kitobingizning nomini yozing.

IV bo'lim.
Bahor keldi,
keladi Navro'z





Narsa-buyumlar nomini ayting. Ularning birinchi harfi bo'yicha so'z tuzing.



She'rni ifodali o'qing.

Bahor kelaveradi

Bahor kelaveradi,
Shaxdam yelaveradi.
Fasllarning chechani,
Tenglar kunduz-kechani.
Dalalarda ishboshi,
Yoqimtoydir quyoshi.
Butun borliq uyg'onib,
Daryo, ko'llar to'lg'anib.
Yashil kiyib adirlar,
Gullar sochar atirlar.
Gullarga gul qo'shadi,
Qo'shiq bo'lib jo'shadi.
Dehqon yerga egilar,
Ko'chat urug' ekilar.

Po'lat Mo'min



Savollarga javob bering.

1. Shoir bahor fasliga qanday ta'rif beryapti?
2. "*Fasllarning chechani, Tenglar kunduz-kechani*" deganda shoir nimani nazarda tutyapti?
3. Ayting-chi, bu faslda dalalarda qanday ishlar boshlanadi?



Izohli lug'at:

chechan – chaqqon, uddaburon
borliq – olam
to'lg'anmoq – to'lqinlanmoq



She'rdan bahor tabiati tasvirlangan misralarni topib o'qing.

- Dehqon haqidagi misralarni topib o'qing.
- Quyidagi so'zlarga qofiyadosh so'zlar toping.
kelaveradi – *uyg'onib* – *egilar* –
- So'zlarni o'z o'rniga qo'ying va maqolni o'qing.
Kelishi Yilning ma'lum bahordan yaxshi.



She'rni ifodali o'qing.



Harflarni kichigidan kattasi tomon o'qisangiz, bahor yana qanday atalishini bilib olasiz.

K A K L O ' M



O'qing.

Bahor ta'rifi

Bahor juda ko'rkam fasldir. Uni "Fasllar kelinchagi" deb e'zozlaydilar, "Zumrad bahor" deb ataydilar.

Bahor kelishi bilan quyosh iliq nurlarini socha boshlaydi. Ko'kda oppoq bulutlar suzib yuradi. Bahorda tez-tez yomg'ir yog'ib, momaqaldiraq ham bo'ladi. Yomg'irdan keyingi havo biram yoqimli va toza. Mayin shabada kishiga huzur bag'ishlaydi. Atrof yam-yashil o't-o'lanlar bilan qoplanadi. Daraxtlar kurtak chiqaradi, gullab, barg yozadi. Bahorning birinchi gullari boychechak va xushbo'y binafshalar ochiladi. Ulardan so'ng chuchmoma, nargis gullari ko'zingizni quvontiradi. Ariqlardan shildirab oqayotgan suvlar bo'yida yalpizlar ko'karadi. Bahorning elchilari – qaldirg'ochlar ko'kda parvoz qiladi.

Bahor haqida qancha gapirsak, shuncha oz. Siz bahorga yana qanday ta'rif bergan bo'lardingiz?



Savollarga javob bering.

1. Bahor fasli yana qanday nomlar bilan ataladi?
2. Bahorda tabiatda qanday o'zgarishlarni kuzatamiz?
3. Siz bahorga yana qanday ta'rif bergan bo'lardingiz?



Izohli lug'at:

ko'rkam – chiroyli

elchi – darak beruvchi narsa, belgi



So'zdagi bo'g'inlarni o'z o'rniga qo'yib, maqolni o'qing.

lamKo'k – namehti lanbi kamko'r.

- Mazmunini izohlang.



Matnni o'qing. Mazmunini boyitib, qayta hikoya qilib bering.



**Rasmga ta'rif
bering.**

1. Siz onajoningizga qanday yordam berasiz?
2. Onajoningizni qaysi so'zlar bilan ta'riflagan bo'lardingiz?



She'rni ifodali o'qing.

Onajonim qo'llari

Tandir to'la nonlarning
Pishmoq sirin o'ylayman.
Non yopilgan tandirga
Shoshilmasdan bo'ylayman.
Biram issiq – gumbaz cho'g'
Kuydirgudek yuzimni.
Darrov ortga qaytaman,
To'sgancha qosh-ko'zimni.
Onajonim qo'llari
Nonni uzar saralab,
So'ngra yupqa suv separ,
Savat uzra sevalab...

Valijon Ahmadjon



Savollarga javob bering.

1. She'r kimning nomidan aytilyapti?
2. Sizningcha, nima uchun shoir she'rga shunday sarlavha qo'ygan?
3. Onalarning qo'llarini qanday tasavvur qilasiz?



Izohli lug'at:

sevalamoq – tomchilatib sepmoq

gumbaz – yarim shar shaklidagi tom



Quyidagi so'zlarga qofiyadosh so'zlar toping.

Saralab –

Yuzimni –

O'ylayman –



“Ona” so'ziga sinkveyn tuzing.

Kim? Ona.

Qanday? _____, _____.

Nima qiladi? _____, _____, _____.

Gap. _____

Ma'nodosh so'z. _____.



She'rni ifodali o'qing. “Mening onam” mavzusida og'zaki hikoya tuzing.



O'qing.

Bahor keldi

Bir kuni tongda Maftunani uyqudan “qurey-qurey” degan ovoz uyg'otib yubordi. U o'rnidan tura solib, derazadan tashqariga boqdi. Osmonda arg'imchoq solib, turnalar uchib o'tar edi.

U onasining oldiga borib so'radi:

– Oyijon, ana u qanday qushlar?

– Turnalar, qizalog'im, turnalar. Ular biz tomonga bahorni olib kelishdi.

– Bahor kelganini qanday bilsa bo'ladi, oyijon?

– Turli-tuman qushlar uchib keladi. Dalalarda maysalar yam-yashil bo'ladi. Daraxtlar qiyg'os gullaydi.

– Bahor unda yaxshi ekan-da?! – dedi Maftuna.

Vafo Fayzulloh



Savollarga javob bering.

1. Hikoyaning asosiy qahramoni kim?
2. Turnalar o'zlari bilan nimani olib kelishdi?
3. Matndan bahor ta'rifini toping va o'qing.
4. Sizningcha, qizchaga bahor yoqdimi?



Izohli lug'at:

qiyg'os – hammasi baravariga, yoppasiga



Hikoyani rollarga bo'lib o'qing. Bo'g'inlarni to'g'ri joylashtirsangiz, bahorda yurtimizga uchib keladigan qushlar nomini bilib olasiz.

**LA+JIB+BON+JI VAH+QUSH+MA
FI+SO'+G'AY+TO'R**



Yodda tuting!

*Qushlar – bizning qanotli do'stlarimiz.
Ularga g'amxo'rlik qiling!*



Tez aytish.

**Chirq-chirq-chirq,
chug'urladi chug'urchuq.**



Ifodali o'qishga tayyorlaning.



Topishmoqlarning javobini toping.

**Erta ko'klamning nozi
Yer tagida piyozi.
U ochilsa taralgay,
Qirda bahor ovozi.**

**Erta bahor qirmizginam,
Tog'ga yoydi qizil gilam.**

**Bargim ingichka,
Qad-bastim novcha.
Hidlab ko'r hargiz,
Ismimdir ...**



She'rni ifodali o'qing.

Boychechak

Gunafshadan o'zishga
Yuguribsan, boychechak.
Undan erta chiqishga
Ulguribsan, boychechak.

Umring qisqa bo'lsa-da
Turmasang-da kuzgacha.
Ko'klamni boshlab kelding,
Senga mehrim o'zgacha.

Yo'ldosh Sulaymon

**Savollarga javob bering.**

1. She'rdan boychechak haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. She'rda yana qaysi gulning nomi tilga olingan?
3. Nima uchun shoirning bu gulga mehri boshqacha ekan?
4. Siz boychechak haqida yana she'r va qo'shiqlar bilasizmi?

**Izohli lug'at:**

o'zmoq – tez harakatlanib, atrofdagilarni ortda qoldirmoq

**Bu qiziq!**

- Boychechak – bahorning ilk guli.
- Boychechakning guli oq rangda bo'ladi.
- Boychechak iliq quyosh nurini yoqtiradi, soyali o'rmonlarda ham yaxshi o'sadi. Biroq ushbu gullar suvsizlikka chidamli emas.
- Boychechaklar Qizil kitobga kiritilgan.

**She'rni yod oling.**



**Audiomatnni diqqat bilan
tinglang. Sumalakxo'r samolyot**



2



Savollarga javob bering.

1. Samolyotjonning qanday armoni bor ekan?
2. Quyosh bobo nega ajablanibdi?
3. Sizningcha, Samolyotjon Quyosh boboga qaysi yurt haqida so'zlab berdi?
4. Suhbatga kim aralashibdi?
5. Quyosh bobo qaysi taom haqida so'zlab berdi?
6. Siz bu taom haqida nimalar bilasiz?
7. Quyosh bobo Samolyotjonga qanday shart qo'ydi?
8. Siz sumalak qanday tayyorlanishini bilasizmi?



Ertakda qatnashgan qahramonlarni sanab bering.

Quyidagi gaplarni o'qing. Bu gaplar qaysi qahramonga tegishli ekanini ayting.

- Quyosh bobo, hoy Quyosh bobo! Iltimos, meni kichkinagina samolyotchaga aylantirib qo'ying!
- Nega? Esing joyidami?

- Bilasiz, anchadan buyon bu o'lkaga uzoq-yaqin mamlakatlardan sayyohlarni olib kelaman. O'tgan yili bahorda ochiladigan boychechaklarni bir ko'ray deb pastga boqib hayron qoldim. Adir etagida odamlar yig'ilib, katta doshqozonda allaqanday taomni pishirishayotgan ekan.
- O'zimning oshqozonim degin, Samolyotjon! To'g'ri, men ham u taomdan tatib ko'rgim kelyapti! Quyosh, og'aynijon, rostdan ham uni kichkina samolyotchaga aylantirib qo'ying!
- Sumalak nimaligini bilmayman-u, men mayiz, no'xat, zarchavali palovni yaxshi ko'raman. Uni palovxonto'ra ham deyishadi! Bu yurt odamlari ehson qilmoqchi bo'lsa, siz aytgan katta doshqozonlarda osh pishiriladi. Nahorga dasturxonga tortiladi.
- Men esa sumalakdan tatib ko'rgim kelyapti. U judayam shirin bo'lsa kerak!
- Mayli, faqat bir shartim bor, bizga ham bir piyolachadan olib kela olasanmi?
- Albatta!

Rollarga bo'lib o'qing.



Suhbatni o'qing. Ertak mazmuniga mos rasm chizing.



Savollarga javob bering.



1. Siz ham sumalakdan tatib ko'rganmisiz?

2. Uning foydasi haqida bilganlaringizni so'zlab bering.



O'qing



Samolyotjon pastga sho'ng'ibdi. Katta qozondagi mazali sumalakni ochgan odamlarga qo'shilib, maza qilib sumalakxo'rlik qilibdi.

Quyosh bobo va Osmon buvaga bergan va'dasini ham unutmabdi.

– Bu taom, – debdi Quyosh bobo sumalakning yuqini ham yalab, – nafaqat

shirin, balki sehrli ham ekan! Tanamga kuch qo'shilganday bo'ldi-ya! Qarang, nurlarim ham boshqacha tovlanib ketdimi?!

– Albatta! – dedi Osmon buva. – Men ham uning sehrini his qildim. Janjalkash bulutchalarga biroz bergan edim, ana, yarashib olishdi.

Aytishlaricha, o'shandan buyon uch sumalakxo'r – Samolyotjon, Quyosh bobo va Osmon buva bahorni sog'inib kutishar ekan...



Savollarga javob bering.

1. Sizga ertakning qaysi qismi ko'proq yoqdi?
2. Samolyotjon bergan va'dasini bajardimi?
3. Nima uchun sumalakni sehrli taom deyishdi?
4. Siz yana qanday bahor taomlarini bilasiz?



Topshiriqlarni bajaring.

- Ertak matnidan Quyosh bobo va Osmon buvaning gaplarini topib o'qing.



Topishmoqning javobini toping.

**Qozonimga osh soldim,
Bug'doy, yana tosh soldim.
Vaqirladi tinmasdan,
Kovlab turdim, jilmasdan.**

**Ichakuzdida quvvat,
Sanalar tansiq ne'mat.
Masallig'i go'sht, bug'doy,
Tarkibi oqsilga boy.**



Tez aytish.

**Sumalakning sim-sim siri
sayyohlarga so'roq bo'ldi.**



“Sumalak” haqida ma'lumotlar to'plang.



Tezkor savollarga javob bering.

1. Turli gullar ekilgan joy.
2. Sayroqi qush nomi.
3. Uning cho'qqisida qorlar erimaydi.
4. Ona sayyoramiz nomi.
5. U yordamida ko'ramiz.
6. To'rtta harfdan iborat bahor guli.
7. Mevali daraxtlar ekilgan joy.
8. Olamga nur sochadi.
9. Endi ekilgan ko'chat.



She'rni ifodali o'qing.

Seni deb...

– Nega ayting, gulzorda

Ochilar chaman  lar?

Nima deb tong saharlarda

Sayrar tinmay  lar?

 ochilar ko'rganingda

 laring quvnasin, deb.

Tog'dan erib tushar  lar

Tashnangni qondiray, deb.



zorlar yashnar, porlar

Dilingni yondiray deb.

Ko'kda kulib bobo



Shu'la sochar yo'lingga.

Kundan kunga o'sar nihol

Bol tutay deb



ingga.

Quvna, o'yna, ey bolajon,

Seni kaftda tutar yer.

Qirlar, bog'lar seni kutar,

Butun borliq seni der.



Savollarga javob bering.

1. She'r sizga yoqdimi?
2. Sizningcha, shoir she'r orqali nima demoqchi?
3. Biz atrofimizdagi narsalarga qanday munosabatda bo'lishimiz kerak?
Fikringizni izohlang.



She'rni ifodali o'qing.

Yurtimizda Navro'z bayrami qanday nishonlanadi?



O'qing.

Xush kelibsan, Navro'zi olam

Bahorda eng chiroyli bayram – Navro'z bayrami 21-mart, kun bilan tun tenglashgan kunda nishonlanadi. Bilasizmi, “Navro'z” so'zi “yangi kun” degan ma'noni anglatadi va eng qadimiy bayramlardan biri hisoblanadi.

Yurtimizda Navro'z bayrami katta tayyorgarlik bilan kutib olinadi. Ko'chalar tozalanadi. Daraxtlar oqlanadi va gullar ekiladi. Qariyalar holidan xabar olinadi. Odamlar bir-birlariga yaxshi tilaklar bildiradilar. Sumalak, halim, ko'k somsalar pishiriladi. Bayram munosabati bilan katta sayillar o'tkaziladi.

Navro'z do'stlik va birlik ramziga ega bo'lgan umumxalq bayramidir.

**Savollarga javob bering.**

1. "Navro'z" so'zi nimani anglatadi?
2. Navro'z qachon nishonlanadi?
3. Bu bayramni odamlar qanday kayfiyatda kutib oladilar?
4. Navro'z haqida yana nimalar bilasiz?

**Izohli lug'at:**

sayil – tantanali sayr-tomosha

**Quyidagi so'zlar bilan boshlanadigan
gaplarni topib o'qing.**

Bahorda eng chiroyli...
Yurtimizda Navro'z...
Odamlar bir-birlariga...
Navro'z do'stlik...

- Tarmoqlash usuli yordamida Navro'zga ta'rif bering.

**Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.**



Tezkor savollarga javob bering.

1. Bahor oylarini ayting.
2. Bahor so'ziga ma'nodosh so'z.
3. Bahorning ilk guli.
4. Bahor elchisi bo'lgan qush.
5. 21-martda nishonlanadigan bayram nomi.



Quyidagi so'zlarga ta'rif bering.

BAHOR ONA NAVRO'Z



Topishmoqlarning javobini toping.

**Bir fasl bor tengsiz chiroy,
Kurtak, gullar, dovuchcha.
O'ylab aytgin sen picha!**

**Biri sepadi,
Biri ichadi,
Biri o'sadi.**



Harflarni o'z o'rniga qo'yib, maqolni o'qing.

nOa – raxdat, labo – vame.

- Maqolning mazmunini izohlang.

- Bu maqol bo'limdagi qaysi asarga mos kelishini ayting.



Rasmli she'rni o'qing.

Bahor keldi

Keldi bahor,  bahor
Erib bitdi oppoq  .
Uchib keldi  larjon,
 lar taqdi marjon.
 lar oqar shildirab,
Yulduz boqar miltirab,
 lar yayrashar,
Sho'x  lar sayrashar.
 nurlarin sochdi,
Atirgul g'uncha ochdi.
Bog'da qizil  lar,
Terib oling, bolalar.



Bo'lim mazmuniga mos she'r va hikoyalar topib o'qing. O'qigan asarlaringiz haqida ma'lumot tayyorlang.

MUNDARIJA

Qanday yaxshi, qanday soz, o'qishni bilsang o'zing	3
--	---

I bo'lim. Aziz Vatan, jonajon Vatan

Siz sevgan odamlar makoni	6
O'zbekiston – ozod diyor	8
Vatan himoyachilari	10
Yurt qalqonlari	12
O'zbekiston – jonajon yurtim mening!	14
Men – shu yurtning bo'lagi	18
Bo'lim yuzasidan takrorlash	20

II bo'lim. Qoyilman qish ishiga, zavq beradi kishiga

O'lkamda qish	23
Rosa maza qish, qorlari – kumush	25
Qishda jonivorlar hayoti	27
Qish faslining erkasi	29
Qishda bo'lgan voqealar I	31
Qishda bo'lgan voqealar II	34
Bo'lim yuzasidan takrorlash	36

III bo'lim. Kitob bilim bulog'i – O'quvchining o'rtog'i

Fan yo'lida nur-oftob	39
Qiziqarli mashg'ulot	41
Boshing to'lsin aqlga	43
Eng yaxshi sovg'a	45
Kitobsevar bobom	47
Kitob – buyuk donishmand	49
Kitoblarning makoni	51
Kitobni toza saqlang	53
Bo'lim yuzasidan takrorlash	55

IV bo'lim. Bahor keldi, keladi Navro'z

Salom senga, gulbahor	58
Ko'klam – yashnaydi olam	60
Onajonim, mehribonim	62
Uchib keladi qushlar	64
Ko'klamni boshlab kelding	66
Bahorning taomi	68
Butun borliq seni der	73
Kulib keldi Navro'zim	75
Bo'lim yuzasidan takrorlash	77

M. Nishonboyeva

Aydarova Umida Baxtyarovna
Azizova Nodira Kudratullayevna



O'qish savodxonligi

1-sinf

I qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"

Toshkent – 2023

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Rassomlar:
Kompyuterda sahifalovchi

M. Nishonboyeva
A. Sobitov
X. Serobov
D. Vetokhina, S. Sharapova
S. To'ychiyeva

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 03.08.2023-yilda original-maketdan
bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 16 n/shponli.

"Arial" garniturasini. Ofset bosma usulida bosildi.

Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m² qog'oz.

Shartli b.t. 5,5. Hisob-nashriyot t. 0,8.

Adadi 626 981 nusxa. Buyurtma raqami 23-571.

"O'zbekiston" NMIUda chop etildi.

